

QALQONSIMON BEZ KASALLIKLARI



Abstract:

Ushbu maqolada Qalqonsimon bez funksiyasining buzilishi yod yetishmasligi sababli kelib chiqadigan kasalliklar haqida yoritilib beriladi.

Key words:

Qalqonsimon bez, Greyvs kasalligi, Endokrin, Xashimato kasaligi, bo'qoq, sendrom.

Author of the article:

Izzatilloeva Dilshoda
G'ayrat qizi

Workspace (Education subject)

Buxoro davlat tibbiyot instituti
Turkiya fakultetining Davolash
yo'nalishi 3 kurs talabasi

Kirish:Organizmدا Qalqonsimon bezning ahamiyati juda katta, u bosh miya faoliyati, moddalar almashinuvi, suyak o'sishi, immun sistemalar, jismoniy va aqliy rivojlanish, jinsiy yetilish jarayonlari, adaptatsiya va boshqalar reaksiyalarni ta'minlaydi. Bu bez faoliyatining buzilishi buqoq, gipotireoz, gipertireoz va boshqalar kasalliklarga olib keladi.

Asosiy qism:

Qalqonsimon bezning asosiy kasalliklari: Autoimmun qalqonsimon bez kasalliklari: tarqoq toksik bo'qoq (Greyvs kasalligi), shu jumladan endokrin oftalmopatiya, surunkali Autoimmun tiroidit (Xashimoto kasalligi). Bo'qoq tugunli va diffuz shakllari (tugunli / ko'p tugunli kolloid bo'qoq, qalqonsimon bez adenomalari, yuqori tabaqalashtirilgan qalqonsimon bez saratoni, diffuz toksik bo'lmagan bo'qoq) Qalqonsimon bezning virusli va bakterial kasalliklari: o'tkir va subakut tiroidit (De kervenning tiroiditi) kasalligi: alomatlar Greyvs kasalligi.

Kasallik asosan sekin boshlanadi. birinchi belgilari - bir uyqu buzilishi, hiperaktivite, tez-tez bo'lib ruhiy holat, migren, hujumlar vahima. So'ngra oyoqlar qaltirab ter bosishi. Ozib ketish .Kasal odamlar, odatda, hatto sovuq mavsumga va issiqlikga toqat qilaolmasligi Kasallik inson ulg'aygan sari alomatlari paydo kabi. Ko'zlar keng bo'lib, ba'zi hollarda, oftalmopatiya rivojlanmoqda.Hashimoto tireoiditi (ing. Hashimoto thyroiditis) — autoimmun kasallik bo'lib, immun sistemasi qalqonsimon bezni tananing bir qismi sifatida tan olishni to'xtatadi va unga hujum qila boshlaydi. Bu qalqonsimon bezning yallig'lanishiga olib keladi va tiroidit deb ataladi. Hashimoto tiroiditining boshqa nomlari orasida Xashimoto kasalligi, surunkali limfotsitik tiroidit va autoimmun tiroidit kabilari mavjud.

Gipertiroidizm (qalqonsimon bezning surunkali giperfunksiyasi)-qalqonsimon bez tomonidan tiroksin gormoni haddan tashqari ko'p miqdorda ishlab chiqarganda yuzaga keluvchi patologik holatdir. Gipertiroidizm sababli tanadagi metabolik jarayonlarni jadallashtirib yuboradi va buning oqibatida ko'p energiya sarflanishi sababli tana vaznining tez yo'qotilishi va yurak urib ketish holatlariga olib keladi. Gipertiroidizm uchun davo choralarining bir necha turlari ishlab chiqilgan. Qalqonsimon bez gormonlari ishlab chiqarishni sekinlashtirish maqsadida qalqonsimon bez giperfunksiyasini sekinlashtiruvchi dorilar va radioaktiv izotopli yoddan foydalanadi. Ba'zida gipertiroidizmni davolash qalqonsimon bezning to'liq yoki bir qismini olib tashlash bilan hal qilinadi.Qalqonsimon bezda adenomlar yoki boshqacha qilib aytganda bo'ynidagi tugunlar quyidagi sabablarga ko'ra paydo bo'ladi:

Tez-tez stress holatlari;
Psixoemotsional holatning buzilishi,
Jiddiy kasallikdan keyin uzoq vaqt tiklanish;
Kuyish;
Gipotermiya;
Gipertermiya;
Qalqonsimon bezning giperaktiv ishlashi;
Gipofiz tomonidan qalqonsimon bez gormonlarining ishlab chiqarilishi ko'payishi yoki kamayishi. Bundan tashqari, kista quyidagi omillar ta'sirida rivojlanishi mumkin:
Yod yetishmasligi;
Tireoid kasallik;
Turli zaharlanishlar;
Gormonal buzilishi;
Noqulay ekologiya sharoitida yashash;
Qalqonsimon bezning mexanik shikastlanishlari;
A'zo rivojlanishi va faoliyatdagi tug'ma patologiyalar;
Irsiy moyillik.

Anaplastik qalqonsimon bez saraton, shuningdek, anaplastik tiroid karsinomasida ham tanilgan, qalqonsimon bezdagi hujayralarning nazoratsiz o'sishi bilan tavsiflangan qalqonsimon bez saratonining agressiv shaklidir. Saratonning bu shakli odatda agressivligi va saratonni davolashga chidamliligi tufayli juda yomon kechadi. Anaplastik qalqonsimon saraton hujayralari juda g'ayritabiiydir va odatda qalqonsimon bezning asl hujayralariga o'xshamaydi va kam differensiallashgan, bez funksiyasini bajarishga ixtisoslashmagan hujayralar bo'ladi.

Qalqonsimon bezning anaplastik saratoni qalqonsimon bez saratonining kam uchraydigan shakli bo'lib, atigi 1-2% hollarda uchraydi, ammo yuqori o'lim darajasi tufayli qalqonsimon bez saratonidan kelib chiqadigan o'limning 20-50% ini tashkil qiladi. Tashxis qo'yilgandan keyin o'rtacha omon qolish muddati uch oydan olti oygacha.

Qalqonsimon bez kasalliklari har kim uchun xavfli, chunki yuqorida aytib o'tilganidek, metabolizmning intensivligi ushbu organning gormonlariga bog'liq. Biroq bu muammo qaytarilmas oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan xavf guruhlarini mavjud. Farzand kutayotgan ayollarda homilaning o'sishini, bolaning jismoniy va aqliy yetukligini belgilaydigan qalqonsimon bez gormonlaridir. Olimlar hatto homilador ayolda qalqonsimon bez kasalligi homilaga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkinligini taxmin qilishdi. Shuning uchun homiladorlikning juda erta bosqichlarida yoki rejalashtirishdan avval endokrinolog tomonidan tekshiruvdan o'tish tavsiya etiladi.

endokrinolog tomonidan tekshiruvdan o'tish tavsiya etiladi.

Agar doimo ochlik hissi tark etmasa va odatdagi ovqatlanish kifoya qilmasa, qalqonsimon gormonlar muvozanatini tekshirib ko'rish lozim. Gipertireozda qalqonsimon bez gormonlari ko'p miqdorda ishlab chiqarilganda, organizm kaloriyalarni ko'proq sarflaydi va ishtahani oshiradi. Bundan tashqari, doimiy ochlik stress gormoni kortizol darajasining oshishi tufayli paydo bo'lishi mumkin: organizm xavfli vaziyatda ko'proq energiya saqlashga intiladi.

Tiroyodit. Ba'zida qalqonsimon bez homiladorlikdan keyin, avtoimmun holat yoki noma'lum sabablarga ko'ra yallig'lanishi mumkin. Yallig'lanish bezda saqlanadigan ortiqcha qalqonsimon gormonlarining qon oqimiga chiqib ketishiga olib kelishi mumkin. Tiroyoditning ba'zi turlari og'riqli kechishi mumkin, ba'zilari esa og'riqsiz kechishi mumkin
Gipotireoz kasalligi

Qalqonsimon bezi gormonlarining yetarlicha ishlab chiqarilmasligi (gipotireoz) tushkunlik, apatiya va depressiyaga sabab bo'ladi. Aksincha ortig'i bilan ishlab chiqarilishi (gipertireoz) esa odamlarni agressiv, ta'sirlanuvchan va xavotirli qilib qo'yadi.

Quyida biz gipotireozning asosiy belgilari.

Ich qotishi Hazm qilishni va ich kelishini buzilishi, kekirish va oshqozon sohasidagi og'irlik gipotireozning keng tarqalgan simptomlari hisoblanadi.

Uyquchanlik Gipoteriozi mavjud odamlar sutkasiga 12 soat yoki bir necha kun davomida tinimsiz uxlashi mumkin, lekin baribir o'zini charchagan his qiladi. Uyquchanlik va lanjlik xavfli signallar hisoblanadi.

Soch to'kilishi va teri quruqshashi Gormonal disbalans va moddalar almashinuvini pasayishi natijasida teri vo soch tolalarini oziqlanishini buzilishi kuzatiladi. Nursiz ko'zlar, terini oqarib, sarg'ayishi gipotireozning yana bir belgisi hisoblanadi.

Semirish Sababsiz tana vaznining ortishi uning xar qanday parxez va cheklovlar ta'sirida ham tushmasligi buqoq bezi faoliyati pasayganda kuzatiladi.

Muskullar og'rig'i va poy tortishishi Gipotireoz natijasida nervlarni zararlanishi va muskullar spazmi, talvasasi va oyoq-qo'llar uyushishi kuzatiladi. Yurak ritmini buzilishi Yurak urishlari sonini va arterial qon bosimini pasayishi, shuningdek yurak soxasidagi og'riqlar buqoq gormonlarini pasayishida kuzatiladi. Parishonxotirlik

Gipotireozga xotira va ish faoliyatini pasayishi, diqqat-e'tibor susayib, axborotlarni qabul qilishni qiyinlashuvi xos. Shishlar Tilning yo'g'onlashuvi, unda tish izlarini qolishi, yuz va oyoq-qo'llarni shishi, barmoq bilan bosganda chuqurchalarni qolmasligi giptireozga xos. Bo'yin sohasidagi discomfort Buqoq bezining kattalashuvi bemor tomog'iga biror narsa tiqilganini his qilishi va ovozi bo'g'ilishiga sabab bo'ladi.

Gipotireozning yana ikkita muhim belgisi soch to'kilishi va quruq teridir. Yozda ushbu alomatga duch kelishdan, ayniqsa ehtiyot bo'lish kerak. Gap shundaki, metabolizm bilan terlash ham kamayadi, buning natijasida teri kamroq namlanadi, quriydi va hatto tezroq suvsizlanadi. Shuning uchun bunday vaqtda krem va losyonlar yordam bermaydi.

Agar qalqonsimon bez juda ko'p gormon ishlab chiqarsa, organizmning umumiy ritmi kuchayadi, asab tizimi stressni boshdan kechiradi va asabiylik hamda tashvishlanish kuzatiladi. Agar gormonlar juda kam bo'lsa, haqiqiy depressiya alomatlarini boshdan kechirish mumkin. Shunday qilib, agar tashvish yoki tushkunlik kuchaysa, ehtimol, psixiatrga qo'shimcha ravishda endokrinolog bilan uchrashish kerak. Buqoq -qalqonsimon bezning kattayishi bilan tavsiflangan kasalliklar guruhi.

Hozirgi kunda buqoqning quyidagi turlari ma'lum:

diffuz(qalqonsimon bezning bir tekisda kattalashishi);

tugunli (qalqonsimon bez to'qimalarida tugun hosil bo'lishi);

kistali (qalqonsimon bezda kistalar hosil bo'lishi);

diffuztoksik (Bazedov kasalligi);

aralash.(qalqonsimon bezning tugun hosil qilib umumiy kattalashishi)

Sabablari Kasallik qalqonsimon bezning ishlaymay qolishi va uning hajmining o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Sabablari:

irsiy omil;

tanada yod yetishmasligi;

adenoma, qalqonsimon bez saratoni;

tireoid gormonlarining yetarli yoki ortiqcha ishlab chiqarilishi (gipertireoz);

immunitetning pasayishi;

ichki organlarning kasalliklari.

Belgilari

Buqoqqa xos bo'lgan alomatlar:

qalqonsimon bezning kattalashishi;
kattaygan ko'zlar;
holsizlik;
ko'p terlash;
tez vazn yo'qotish;
qon bosimining ko'tarilishi;
tomoq kasalligi;
tomoq to'lganlik hissi;
ko'krak sohasidagi og'riqlar;
nafasolish, yutishqiyinligi.

Buqoq kichik (3 smgacha) bo'lgan hollarda belgilar sezilmasligi mumkin. Erkaklarda qonda yod darajasi past bo'lganida jinsiy qiziqishning pasayishi, jinsiy funktsiyalarning beqarorligi kuzatiladi. Ayollarda esa bunday o'zgarishlar natijasida hayz siklining buzilishi shakllanadi, bu esa o'z navbatida bepushtlik va homila tushishining katalizatori hisoblanadi.
Xulosa

Qalqonsimon bez organizmning kichik, ammo juda muhim qismidir, u tanadagi ko'plab jarayonlarni tartibga soladi. Hatto miyaning normal ishlashi ham qalqonsimon bez faoliyatiga bog'liq. Shuning uchun organizmda eng kichik o'zgarish kuzatilsa ham shifokor bilan maslahatlashish juda muhimdir. Yod tanqisligi kuzatiladigan hududlarda qalqonsimon bez bilan bog'liq muammolar bo'lishi ehtimoli juda yuqori. Gap shundaki, bu organ kasalligining asosiy sababi suv va oziq-ovqatda yodning yetarli emasligi. Ayrim mamlakatlarda butun aholi doimiy yod tanqisligi sharoitida yashayotganligi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1). Endokrinologiya fanidan ma'ruzalar. H.T HAMRAYEV, HUSANOV H.SH. 2009 yil
- 2). uz.delachieve.com
- 3). uzpedia.uz
- 4). Avitsenna.uz
- 5). uz.m.wikipedia.org